Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyevna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
Maxmudov Mamat Raxmatovich	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
Adolat Xolmatova Muxammadjonovna	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	



O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
<i>Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich</i>	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
<i>Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
<i>Otaboyeva Nodira Qodir qizi</i>	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
<i>Qobilova Aziza Tursunovna</i>	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
<i>Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich</i>	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
<i>Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.</i>	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
<i>Суяров Хуршид Бахриддинович</i>	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
<i>Turapova Ra'no Barat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
<i>Jurayeva Muhayyo Nematillayevna</i>	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
<i>Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
<i>Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich</i>	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
<i>Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
<i>Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli</i>	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
<i>Yuldasheva Gulsanam Arken qizi</i>	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
<i>Бахриева Шахноза Давроновна</i>	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
<i>Равшанова Иноят Эркиновна</i>	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
<i>Тагаева Тамара Баходировна</i>	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
<i>D. S. Zokirova</i>	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
<i>Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich</i>	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
<i>Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi</i>	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi</i>	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
<i>Rustemov Muxamed Biysenbayevich</i>	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
<i>Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna</i>	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongni shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
<i>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</i>	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
<i>Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
<i>G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</i>	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
<i>Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
<i>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
<i>Iminova Z. B.</i>	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
<i>Inayatova Nargisa Nishonboyevna</i>	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
<i>Kalmuratovna Venera Sultanova</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
<i>Kamola Abdullayeva</i>	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
<i>Karimov Orif Obloqul o'g'li</i>	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
<i>Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</i>	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
<i>Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
<i>Makulov Shuxratjon Zokirovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
<i>Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
<i>Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
<i>Mansurova Umida Mansur qizi</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
<i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
<i>Murodov Nozimjon Olimjonovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
<i>Nafasova Jamila Turg'un qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
<i>Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</i>	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
<i>O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</i>	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
<i>Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</i>	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
<i>Ostanov Askarjon Nuriddinovich</i>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING O'RNI VA ZAMONAVIY USULLARI

Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi

University of business and science
oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Yurtimizda ta'lim texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi kunda pedagogik diagnostika jarayoni sezilarli darajada yengillashdi. Biroq aniqlik va samaradorlikni ta'minlash uchun dastlab bir qator vazifalarni to'g'ri tashkil etish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ularning ruhiy, ma'naviy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajasini chuqur o'rganishni talab etadigan murakkab jarayondir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda diagnostika usullaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, kuzatish, suhbat, yo'riqnoma asoslangan topshiriqlar va Kern–Irasek metodikasi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik tashxislash, aqliy rivojlanish, axloqiy rivojlanish, Kern–Irasek, “o'ndan yigirmagacha bo'lgan qo'shni raqamlar”, yo'riqnoma, suhbat, kuzatish, ko'nikma, tayyorgarlik, diagnostika.

Abstract: In Uzbekistan, where educational technologies are rapidly advancing, the process of pedagogical diagnosis has become significantly easier. However, ensuring accuracy and effectiveness still requires the proper organization of several preliminary tasks. Preparing preschool children for school is a complex process that involves assessing their psychological, moral, intellectual and social development. This article examines modern approaches to diagnostic methods in early childhood education, particularly focusing on observation, interviews, instruction-based tasks and the Kern–Jirasek methodology.

Key words: pedagogical diagnosis, cognitive development, moral development, Kern–Jirasek, “neighboring numbers from ten to twenty”, instruction, interview, observation, skill, school readiness, assessment.

Аннотация: В условиях стремительного развития образовательных технологий в нашей стране процесс педагогической диагностики стал значительно проще. Тем не менее для обеспечения её точности и эффективности требуется правильная организация ряда предварительных задач. Подготовка детей дошкольного возраста к школьному обучению является сложным процессом, включающим всестороннее изучение их психического, нравственного, интеллектуального и социального развития. В статье проанализированы современные подходы к использованию диагностических методов, в частности наблюдение, беседа, задания по инструкции и методика Керн–Йирасек.

Ключевые слова: педагогическая диагностика, умственное развитие, нравственное развитие, Керн–Йирасек, “соседние числа от десяти до двадцати”, инструкция, беседа, наблюдение, навык, готовность к школе, оценивание.

KIRISH

Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, zamonaviy va barqaror jamiyat qurish kabi ulug'vor maqsadlar sari izchil harakat qilmoqda. Mamlakatimizning jozibador qiyofasini yaratish hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish bugungi islohotlarning bosh maqsadlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng ko'lamli yangilanishlar amalga oshirilayotgani, shu jumladan ta'lim tizimida, ayniqsa maktabgacha ta'lim yo'nalishida ham samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun – 100 maqsad” belgilangan bo'lib, ularda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan.

Bugungi kunda diagnostika tizimi yordamida bolalarning rivojlanishidagi muhim jihatlar erta aniqlanib, ularga mos individual ta'lim dasturlari shakllantirilmoqda. Zamonaviy ta'lim amaliyotida formativ monitoring, rivojlanish indikatorlari, kompetensiyaviy baholash kabi yondashuvlar diagnostika jarayonining ilmiy asosini



tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan diagnostik vositalar ta'limning sifatini oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish va pedagogik yondashuvlarni yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda ham diagnostik metodikalarning o'rni beqiyos bo'lib, ushbu tizimni uzluksiz takomillashtirish global miqyosda dolzarb masalaga aylangan.

"Diagnostika" atamasi yunoncha "dia" – shaffoflik va "gnosis" – bilim so'zlaridan tarkib topib, o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonning holati haqida aniq axborot olishni anglatadi. Tibbiyotdagi diagnostika tamoyillaridan kelib chiqsak, kasallik belgilari va ularning kelib chiqish sabablarini to'g'ri aniqlash davolanish samaradorligini oshiradi. Xuddi shunday, ta'lim jarayonida ham o'quvchilar rivojlanishi haqida to'g'ri tashxis qo'yish pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi va o'quv jarayonini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy va xarakterologik xususiyatlarini aniqlash metodikasini egallash hamda uni amaliyotda qo'llay bilish pedagogning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. Ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini baholashga ko'proq e'tibor qaratadilar, biroq ularning tarbiyaviy rivojlanish darajasi va xulqiy xususiyatlarini ham kompleks o'rganish uzluksiz ta'lim tizimi uchun muhimdir. Bolaning aqliy rivojlanishi mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va umumiy tarbiyalanganlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, ularning tarbiyaviy holatini tashxis qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish hamda zarur hollarda ularni yo'naltiruvchi choralarni belgilash bugungi ta'lim tizimida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-pedagogik tashxis – shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va tahlil qilish jarayonidir. Yoshlar jamoasida tarbiyalanganlik darajasini aniqlash uchun, avvalo, "tarbiya" va "tarbiyalanganlik" tushunchalarining tarkibi, ularning mezonlari va ilmiy asoslarini chuqur anglash zarur. Bunday yondashuv pedagogik jarayonni takomillashtirish, har bir bolaning individual rivojlanish ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash va samarali ta'lim-tarbiya mexanizmlarini qo'llash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika masalalari ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, ularning ilmiy izlanishlari bolalarning maktabga tayyorlik darajasini aniqlashda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslab beradi. Vygotskiy diagnostika jarayonida bolaning yaqin rivojlanish zonasini aniqlashni asosiy metodologik mezon sifatida belgilagan. Gessel hamda Kern–Irasek tomonidan ilgari surilgan metodikalar esa maktabga tayyorlov jarayonini baholashda psixomotor, nutqiy va mantiqiy rivojlanish ko'rsatkichlariga tayanishni taklif etadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar – Axmedova, Ergasheva va boshqa pedagog olimlar – diagnostikaning ta'lim jarayonini sifat jihatidan boyitishdagi o'rnini, shuningdek, individual ta'lim dasturlarini shakllantirishga qo'shildigan hissasini ilmiy asosda yoritgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniqlash va samarali pedagogik strategiyalarni belgilashda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat, yo'riqnomaga asoslangan topshiriqlar, shuningdek Kern–Irasek metodikasining ayrim diagnostik elementlari qo'llanildi. Ma'lumotlar bolalarning psixologik, aqliy, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish darajasini baholashga yo'naltirilgan standart diagnostik topshiriqlar orqali to'plandi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili asosida qayta ishlanib, bolalarning rivojlanish dinamikasi, mavjud kuchli tomonlari va qo'shimcha rivojlantirishni talab qiladigan jihatlari aniqlab borildi. Tadqiqot natijasida har bir bola uchun mos individual rivojlantiruvchi tavsiyalar shakllantirildi va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori, xatti-harakatlari va jamiytdagi mavqeini anglash jarayonida shakllandigan tasavvur "Men-obraz"i deb ataladi. Ushbu obrazning adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiytdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi hamda barkamollik mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiya inson kamolotida hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlab, insondagi tug'ma qobiliyatning to'liq namoyon bo'lishi tarbiya jarayoniga bevosita bog'liq ekanini ilmiy asosda yoritadi. Avloniy ta'kidlaganidek, mazmunli tarbiya olgan bola sog'lom axloqiy qarashlarga ega bo'lib voyaga yetadi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, zamonaviy ta'limda pedagogik tashxis va korreksiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Maktabgacha yosh inson hayotidagi nisbatan qisqa, biroq eng jadal rivojlanish kechadigan davr bo'lib, ushbu yillarda bolaning faoliyat muhiti kengayadi, muloqot doirasi boyiydi, shaxsiy fazilatlar



bosqichma-bosqich shakllanadi. Bola o'z "men"ini anglay boshlaydi, o'zini obyektiv baholashga intiladi, fikrlashning vizual va amaliy shakllari takomillashadi. Bu jarayonlar kelgusidagi barcha ta'lim bosqichlarida muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Yosh bolaning 3–7 yosh oralig'idagi rivojlanish bosqichi eng mas'uliyatli davrlardan biri bo'lib, aynan shu jarayonda atrof-muhit haqida keng qamrovli bilimlar shakllanadi, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlari rivojlanadi va maktab muhitiga moslashuv kuchayadi. Pedagogik diagnostika ushbu imkoniyatlarni aniqlash, rivojlantirish yo'llarini belgilash va ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirishda katta ahamiyatga ega.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonlari ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganida, ularning ma'naviy ongini mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va boshqa yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashda ijobiy natijalar kuzatiladi. Pedagogik tashxis yosh avlodning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini aniqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik korreksiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqish ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash, samarali metodikalarni joriy etish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur muammoning yechimlari sifatida kuzatish, suhbat, yo'riqnoma asosidagi topshiriqlar, ko'nikma baholash mezonlari hamda "o'ndan yigirmagacha bo'lgan qo'shni raqamlar" kabi diagnostik metodlardan foydalanish bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda samarali natija beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, jarayonni yanada qiziqarli va mazmunli tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik diagnostika, avvalo, individual ta'lim jarayonini qulay va maqsadli tashkil etishni ta'minlaydi; shuningdek, jamiyat talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya natijalarini aniq baholash va ularning sifat kafolatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u o'quvchilarga mos ta'lim yo'nalishini tanlash jarayonini ongli va oqilona amalga oshirishga ko'mak beradi.

Pedagogik diagnostika yordamida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar tahlil qilinadi, ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi va ularning rivojlanish dinamikasi muntazam kuzatib boriladi. Tashxislashda nafaqat mavjud natijalar, balki ularning istiqboldagi o'zgarish tendensiyalari ham hisobga olinishi zarur. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining izchil takomillashuviga, individual rivojlanish ehtiyojlarining aniqlanishiga va pedagogik faoliyatning sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022–yil 28–yanvardagi PF–60–sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017–yil 30–sentabrdagi PQ–3305–sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-3362881>
4. Axmedova N. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. – Toshkent, 2021.
5. Ergasheva U. Maktabgacha ta'lim sohasida pedagog olimlarning milliy qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berishga oid qarashlari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – № 1.
6. Ergasheva U. "Ma'naviy-ma'rifiy" ishlar bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari sifatini oshirish. Molodye uchenye. – 2024. – T. 2. – № 21. – S. 51–53.
7. Ergasheva U. Ilk adabiy ta'lim tarbiyalanuvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish asosi sifatida. Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. – 2024. – T. 3. – № 30. – S. 183–186.
8. ЭРГАШЕВА У. К. Педагогинг ўқитувчи ва тарбиячи сифатидаги касбий маҳорати. Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 4. – № 1. – С. 27–33.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.